

**ANTIBIOTIK REZISTENTLIGI: RIVOJLANISH MEKANIZMLARI VA
ZAMONVIY FARMAKOLOGIK MUAMMOLAR**

Egamberdiyeva Bahora Eldor qizi

Raxmatullaeva Aziza SHERZOD qizi

Sulaymonova Shahnoza Rustam qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universituti

Samarqand, O'zbekiston

Ilmiy rahbar: Arslanova R.R

Tadqiqot maqsadi : Antibiotik rezistentligining shakllanish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish, uning klinik ahamiyatini baholash hamda zamonaviy farmakologik yondashuvlar asosida muammoni kamaytirish yo'llarini aniqlashdan iborat.

Material va metodlar: Tadqiqot jarayonida antibiotik rezistentligi muammosiga oid so'nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar, klinik kuzatuv natijalari va farmakologik tavsiyalar tahlil qilindi. Adabiyotlar sharhi, tizimli tahlil, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Mikroorganizmlarning antibiotiklarga nisbatan chidamlilik hosil qilish mexanizmlari, ularning molekulyar asoslari hamda klinik oqibatlari kompleks ravishda o'rganildi.

Natijalar. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, antibiotik rezistentligi bakteriyalarning genetik moslashuvchanligi va selektiv bosim ta'sirida shakllanadi. Chidamlilik rivojlanishida bir necha asosiy mexanizmlar aniqlangan: spontan gen mutatsiyalari, plazmidlar orqali genlarning gorizontol uzatilishi, antibiotiklarni inaktivatsiya qiluvchi fermentlar (masalan, β -laktamazalar) sintezi, hujayra devori o'tkazuvchanligining kamayishi hamda dori moddasining faol transport tizimlari orqali hujayradan chiqarib yuborilishi. Ushbu mexanizmlar natijasida antibiotikning terapevtik konsentratsiyasi yetarli darajada ta'sir ko'rsata olmaydi.

Rezistentlikning keng tarqalishida inson omili muhim rol o'ynaydi. Antibiotiklarni nazoratsiz qabul qilish, virusli infeksiyalarda asossiz qo'llash, davolash kursini muddatidan oldin to'xtatish hamda veterinariya amaliyotida keng foydalanish rezistent shtammlarning seleksiyasiga olib keladi. Natijada oddiy infeksiyalarni davolash qiyinlashadi, kasallikning davomiyligi ortadi, asoratlari va letallik ko'rsatkichlari oshadi. Shuningdek, statsionar sharoitda ko'p dori vositalariga chidamli shtammlarning tarqalishi jiddiy epidemiologik muammo hisoblanadi.

Zamonaviy farmakologik yondashuvlar antibiotiklardan oqilona foydalanish tamoyillariga asoslanadi. Kombinatsiyalangan terapiya qo'llash, β -laktamaza ingibitorlari bilan birgalikda preparatlar buyurish, tor ta'sir doirasiga ega antibiotiklarni tanlash hamda mikrobiologik tekshiruv asosida individual terapiya belgilash samarali natija beradi. Bundan tashqari, yangi avlod antibakterial vositalarni yaratish, alternativ usullar – bakteriofag terapiyasi va immunomodulyatorlardan foydalanish istiqbolli yo'nalishlar sifatida ko'rilmoqda.

XULOSA

Antibiotik rezistentligi global miqyosda sog‘liqni saqlash tizimi uchun jiddiy xavf tug‘dirayotgan muammodir. Uning rivojlanishi murakkab molekulyar mexanizmlar va antibiotiklardan noto‘g‘ri foydalanish bilan chambarchas bog‘liq. Rezistentlikning oldini olish uchun ratsional farmakoterapiya tamoyillariga qat’iy rioya qilish, nazorat tizimini kuchaytirish va yangi dori vositalarini ishlab chiqish zarur. Tibbiyot xodimlari va aholining bilim darajasini oshirish antibiotiklarning samaradorligini saqlab qolishda muhim omil hisoblanadi.